

O‘ZBEKISTON OILALARIDAGI IJTIMOIIY MUAMMOLAR: AJRIM, ISHSIZLIK, MIGRATSIYA, ZO‘RAVONLIK VA YETIMLIK MASALALARI TAHLILI

Adizova Marjona Mirazizovna

“ROAD STAR TRANS GLOBAL” MChJ yuristi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston oilalarida kuzatilayotgan bir qator o‘zaro bog‘liq ijtimoiy muammolar – ajrim, ishsizlik, tashqi mehnat migratsiyasi, oilaviy zo‘ravonlik va bolalar yetimligi – rasmiy statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usuli asosida o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, sanab o‘tilgan hodisalar bir-biridan alohida emas, balki sabab-oqibat munosabatlari orqali bog‘langan yaxlit ijtimoiy tizimni tashkil etadi. Maqola oxirida muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: oila instituti, ajrim, ishsizlik, mehnat migratsiyasi, oilaviy zo‘ravonlik, yetimlik, ijtimoiy himoya.

KIRISH. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning barcha o‘zgarishlarini o‘zida aks ettiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar va aholi harakatchanligining ortishi oila institutiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ajrimlar sonining muttasil o‘sishi, ishsizlik va norasmiy bandlik muammolari, tashqi mehnat migratsiyasining kengayishi, oilaviy zo‘ravonlik holatlari hamda bolalar yetimligi masalalari alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda oila institutining barqarorligiga tahdid solmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston oilalaridagi ajrim, ishsizlik, migratsiya, zo‘ravonlik va yetimlik muammolarini rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslash. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) har bir muammoning joriy holatini so‘nggi statistik ko‘rsatkichlar asosida yoritish;
- 2) muammolar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash;
- 3) muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekistonda oila muammolari turli fan sohalari – sotsiologiya, psixologiya, demografiya va huquqshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib kelingan. Psixologiya sohasida M.G‘.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G‘.G‘oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov va B.M.Umarovlarning tadqiqotlarida oiladagi er-xotin nizolari, ularning farzand tarbiyasiga ta’siri mahalliy sharoit nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Xususan, X.K.Karimovning “O‘zbek oilalarida er-xotin

nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsion tadqiqotida nizolarning ichki, oilaviy sabablari batafsil yoritilgan, V.M.Karimova esa er-xotin oʻrtasidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishini etnopsixologik jihatdan oʻrgangan.

Oilaviy zoʻravonlik mavzusi boʻyicha N.N.Shomurodovanning tadqiqotlarida ushbu hodisaning ijtimoiy-psixologik xatarlari oʻrganilgan boʻlib, jabrdiydalarning koʻpincha bu haqda ochiq gapirishdan tortinishi asosiy toʻsiqlardan biri sifatida koʻrsatilgan. Soʻnggi yillarda U.S.Saribayevaning oʻzbek oilalaridagi gender stereotiplarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bagʻishlangan tadqiqotlari ham nashr etilgan. Sotsiologiya yoʻnalishida esa oila institutining barqarorligi, mahalla darajasidagi ijtimoiy-profilaktik ishlar va ehtiyojmand oilalar bilan ishlash mexanizmlari boʻyicha bir qator dissertatsion tadqiqotlar olib borilgan.

Xalqaro adabiyotda oila institutining barqarorligi koʻpincha strukturaviy-funksional yondashuv T.Parsons va ijtimoiy anomiya nazariyasi E.Dyurkgeym doirasida, migratsiya va oilaviy munosabatlar oʻrtasidagi bogʻliqlik esa transmilliy oilalar (transnational family) kontseptsiyasi asosida talqin etiladi, unga koʻra oila aʼzolaridan birining uzoq muddat mamlakatdan tashqarida boʻlishi oilaviy rollarning qayta taqsimlanishiga va farzandlar tarbiyasidagi boʻshliqlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda ajrim, oilaviy zoʻravonlik va oilaviy munosabatlar muammolari, asosan, alohida-alohida yoʻnalishlar sifatida chuqur oʻrganilgan boʻlsa-da, ularning ishsizlik va tashqi mehnat migratsiyasi bilan bogʻliq holda, yaxlit ijtimoiy tizim sifatida, soʻnggi 2023–2026-yillar statistik maʼlumotlar asosida kompleks tahlili yetarlicha yoritilmagan. Aynan shu boʻshliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda kontent-tahlil, statistik maʼlumotlarni qayta ishlash va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy maʼlumotlar manbai sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy sud matbuot xizmati hamda xalqaro tashkilotlar (BMT IOM) tomonidan eʼlon qilingan rasmiy maʼlumotlar va 2023–2026-yillarda chop etilgan ilmiy-tahliliy manbalar, ikkilamchi maʼlumotlar tahlili – desk research ishlatildi. Tadqiqot uchun tanlangan davr 2018–2026-yillarni qamrab oldi, bu esa hodisalarning dinamikasini kuzatish imkonini berdi. Tahlil ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda har bir muammo (ajrim, ishsizlik, migratsiya, zoʻravonlik, yetimlik) boʻyicha miqdoriy koʻrsatkichlar tizimlashtirildi; ikkinchi bosqichda ushbu koʻrsatkichlar oʻrtasidagi mantiqiy va statistik bogʻliqlik sifat jihatidan (qiyosiy-tavsifiy tahlil) baholandi.

NATIJALAR. 1. Ajrim (nikohdan ajralish) koʻrsatkichlari. Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, soʻnggi oʻn yil ichida Oʻzbekistonda nikohlar soni barqaror kamayib, ajralishlar soni esa muttasil oshib bormoqda. Agar 2018-yilda mamlakat boʻyicha 32,3 ming ajralish qayd etilgan boʻlsa, 2023-yilga kelib bu koʻrsatkich 49,2 mingga, 2024-yilda esa 45,1 mingga yetdi. Shu bilan birga, 2024-yil


so'nggi o'n yillikdagi eng kam to'y qayd etilgan yil bo'ldi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mamlakatda har 227 oiladan biri ajralmoqda, hududlar kesimida Sirdaryo viloyati eng yuqori ko'rsatkichga ega. 2025-yilning birinchi yarim yilligida 23,3 ming er-xotin nikohdan ajralgan bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqoriroq natijadir.

2. Ishsizlik ko'rsatkichlari. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil o'rtalarida 8,1 foizni tashkil etgan ishsizlik darajasi 2025-yilning uchinchi choragiga kelib 4,9 foizgacha pasaydi. Shunga qaramay, mamlakatda hamon 780 mingdan ortiq fuqaro rasman ishsiz hisoblanadi, band aholining taxminan uchdan bir qismi esa norasmiy sektorda faoliyat yuritmoqda.

3. Tashqi mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari. Hukumat ma'lumotlariga ko'ra, hozirda 1,8 milliondan ortiq o'zbekistonlik chet elda mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda, mamlakat rahbariyati esa xorijda ishlayotganlar sonini 2 milliondan ortiq deb baholamoqda – bu iqtisodiy faol aholining o'ndan bir qismiga teng. Pul o'tkazmalari 2025-yil o'n oyi yakunida 15,8 milliard dollarga yetgan.

4. Oilaviy zo'ravonlik ko'rsatkichlari. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning dastlabki sakkiz oyida oilaviy zo'ravonlik oqibatida nikohni bekor qilish to'g'risida 47 ta ariza sudlarga tushgan bo'lib, ularning 37 tasi qanoatlantirilgan; shu davrda oilaviy zo'ravonlik uchun 81 kishi ozodlikdan mahrum etilgan. Ayollar o'rtasida o'tkazilgan bir tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan ayollarning katta qismi turmush o'rtog'i tomonidan takroriy jismoniy zo'ravonlikka duch kelganini, har to'rtinchi respondent esa bolaligida oilada zo'ravonlik guvohi bo'lganini tan olgan.

5. Bolalar yetimligi ko'rsatkichlari. Ajrim, migratsiya va zo'ravonlik omillarining yig'indisi natijasida bolalar yetimligi va ota-ona parvarishsiz qolish holatlari saqlanib qolmoqda. Uzoq muddatli mehnat migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan "ijtimoiy yetimlik" – ota-onasi hayot bo'lsa-da, ular bilan uzoq vaqt birga bo'la olmaydigan bolalar muammosi – mamlakat uchun nisbatan yangi, ammo tobora kengayib borayotgan hodisadir.



1-rasm. O'zbekistonda ajralishlar (2018–2024) va ishsizlik darajasi

Grafikdagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ishsizlik darajasining izchil pasayishi 2023-yildagi 8,1 foizdan 2025-yil III choragida 4,9 foizgacha) bilan bir vaqtda ajralishlar sonining yuqori darajada saqlanib qolishi kuzatilmoqda. Bu holat ishsizlikning kamayishi o'z-o'zidan ajrimlar sonini qisqartirmasligini, ya'ni oila barqarorligiga faqat iqtisodiy omil emas, balki migratsiya, ijtimoiy-psixologik va huquqiy omillar majmui ta'sir qilishini ko'rsatadi.

MUHOKAMA. Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan besh ko'rsatkich guruhi bir-biridan alohida emas, balki sabab-oqibat zanjiri orqali bog'langan. Xususan, ishsizlik va norasmiy bandlikning yuqori darajasi fuqarolarni tashqi mehnat migratsiyasiga undaydi, uzoq muddatli migratsiya esa oilaviy munosabatlarning zaiflashishiga va ajrimlar sonining o'sishiga sabab bo'ladi. O'z navbatida, iqtisodiy beqarorlik va oilaviy nizolar oilaviy zo'ravonlik xavfini kuchaytiradi, zo'ravonlik va ajrim esa bolalarning ota-ona parvarishsiz qolishi – «ijtimoiy yetimlik» holatlarini keltirib chiqaradi.

Bu natijalar mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan, oilaviy muammolarni bir-biridan ajratib o'rganish yondashuvining amaliyotda yetarli emasligini tasdiqlaydi: har bir hodisa alohida statistik ko'rsatkich sifatida emas, balki yagona ijtimoiy tizimning o'zaro ta'sirlashuvchi elementi sifatida baholanishi lozim. Shu bilan birga, so'nggi yillarda qonunchilikka kiritilgan o'zgarishlar (masalan, bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlikning kuchaytirilishi) va bandlik siyosatidagi ijobiy dinamika (ishsizlikning 8,1%dan 4,9%gacha pasayishi) muammolarni bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosatining faollashganidan dalolat beradi. Biroq migrant oilalar uchun ijtimoiy-psixologik yordam tizimining hali yetarli darajada rivojlanmaganligi tadqiqot davomida aniqlangan bo'shliqlardan biri bo'ldi.

XULOSA. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, ajrim, ishsizlik, migratsiya, zo'ravonlik va yetimlik o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit ijtimoiy tizimning tarkibiy qismlaridir; ikkinchidan, ushbu tizimning boshlang'ich nuqtasi ko'pincha iqtisodiy omillar (ishsizlik, past daromad) bilan bog'liq; uchinchidan, muammolarni bartaraf etish faqat bitta yo'nalish (masalan, faqat bandlik yoki faqat huquqiy islohotlar) orqali emas, balki kompleks yondashuv orqaligina samarali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar. – stat.uz.
2. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Bandlik va ishsizlik bo'yicha hisobotlar, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi devon (gov.uz). Mehnat migratsiyasi sohasidagi vazifalar va rejalar taqdimoti. 19.11.2025.

4. Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM). O'zbekiston migratsiya ma'lumotlarini tahlil qilish hisoboti, 2025-yil may. – uzbekistan.iom.int.
5. Karimov X.K. O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 1994. – 142 b.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o'zaro munosabatlarining roli // O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Resp. ilm.-amal. anjuman materiallari. – Toshkent.
8. Kun.uz. O'zbekistonda nikohdan ajrashish holatlari oshdi. 28.01.2026. – kun.uz.
9. Kun.uz. O'zbekistonda 81 kishi oilaviy zo'ravonlik uchun ozodlikdan mahrum etildi. 14.10.2025. – kun.uz.
10. Gazeta.uz. O'zbekistonda zo'ravonlikka uchragan har beshinchi ayol o'z joniga qasd qilish haqida o'ylagan: tadqiqot. 22.12.2025. – gazeta.uz.
11. Bright Uzbekistan. O'zbekistonda bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik joriy etildi. – buzb.uz.
12. Sputnik O'zbekiston. Qaysi viloyatda oilalar orasida ajralishlar ko'rsatkichi eng yuqori: tahlil. 27.08.2025. – oz.sputniknews.uz.
13. Saribayeva U.S. O'zbek oilalarida gender stereotiplarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2025.